


88. Ko'paytirishning o'rın almashtirish xossasi

Yondosh mavzu:
savdo-sotiq.


Ko'paytuvchi,
ko'paytma.




Ortiqcha shaklni toping.



1. Aziz bilan Amir qog'oz qutidagi bankalarni sanashdi. Amir o'z tomonidan 5 ta bankadan 3 qator bankani sanadi. Amir o'z tomonidan 3 ta bankadan 5 qator bankani sanadi. Har biri qanday ifoda yozadi? Ulardan qaysi biri ko'proq banka sanagan?



2. Oshxonada patnisda kulchalar qator qilib terib qo'yilgan. Har bir qatorda 7 tadan 2 qator kulcha bor. Agar novvoy patnisni burib qo'ysa, nima o'zgaradi? Nima o'zgarmaydi?



Ko'paytirishning o'rın almashtirish xossasi

Ko'paytuvchilarining o'rnlari almashishi bilan ko'paytma o'zgarmaydi.

$$a \cdot b = b \cdot a$$

3. Hisoblashning qulay usullaridan birini o'rganing.

$$\begin{aligned} 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 &= 3 \cdot 10 = 10 \cdot 3 = \\ &= 10 + 10 + 10 = 30 \end{aligned}$$

Qulay usul bilan hisoblang.

$$\begin{aligned} 4 + 4 + 4 + 4 + 4 \\ 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 \\ 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 \end{aligned}$$



88. Ko'paytirishning o'r'in almashtirish xossasi



4. Ifoda tuzing va hisoblang.

- Qog'oz qutida 2 litr sharbat bor. Xaridor 12 quti sharbat sotib oldi. Jami necha litr sharbat sotib olingan?
- Xaltada 3 kg un bor. 20 xalta unning massasi nimaga teng?
- Bitta daftara 3 ming so'm turadi. Shunday 100 ta daftara qancha turadi?



5. Tenglamalarni yeching.

$$(x - 237) + 215 = 476$$

$$(600 - z) - 148 = 243$$

$$(y + 198) - 236 = 400$$

$$900 - (t + 432) = 207$$



6. Ishlab chiqarilgan vaqt – mahsulot ishlab chiqarilgan va qadoqlangan kun. Yaroqlilik muddati – bu mahsulotdan foydalanish mumkin bo'lgan kunlar soni. Xaridorga mahsulot qaysi sanadan boshlab foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolishini tushunib yetishiga yordam bering.


Ishlab
chiqarilgan
vaqt: 6 fevral
Yaroqlilik
muddati:
7 kun



Ishlab
chiqarilgan
vaqt: 17 dekabr
Yaroqlilik
muddati:
6 oy



Ishlab
chiqarilgan
vaqt: 27 yanvar
Yaroqlilik
muddati:
15 kun



7. O'r'in almashtirish xossasi yordamida hisoblang.

$$6 \cdot 10$$

$$3 \cdot 100$$

$$4 \cdot 50$$

$$3 \cdot 40$$

$$5 \cdot 200$$

$$4 \cdot 21$$



8. Ifodalarni yozing va hisoblang.

- Mashina 1 minutda 30 quti sharbat qadoqlaydi. U 5 minutda necha quti sharbat qadoqlaydi?
- Oshxonaga 40 ta uch litrli sharbatli banka keltirildi. Oshxonaga hammasi bo'lib necha litr sharbat keltirilgan?